

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keying o'rnlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 23 239,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8 353,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,8 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018-yil yanvar- dekabrga nisbatan % da
	2018-yil yanvar- dekabr	2019-yil yanvar- dekabr	
I. YaHM	18 046,0	23 239,0	107,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 563,0	22 321,4	106,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	483,0	917,6	111,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 563,0	22 321,4	106,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	8 371,0	10 055,3	102,6
Sanoat (qurilishni sohasini qo'shgan holda)	3 352,2	4 876,0	121,4
Sanoat	2 342,2	3 339,0	114,0
Qurilish	1 010,0	1 537,0	138,7
Xizmatlar	5 839,8	7 390,1	104,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 353,7	1 582,5	101,7
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 069,5	1 197,3	106,1
Boshqa xizmat tarmoqlari	3 416,6	4 610,3	105,2

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,6 %, (YaHM tarkibidagi ulush – 45,0 %), sanoat – 114,0 % (15,0 %), qurilish – 138,7 % (6,9 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 101,7 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 106,1 % (5,4 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 105,2 % (20,6 %) ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar YaHMning 96,1 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar tarkibidagi ulushi 2,7 % punktga kamaydi va hisobot yilida 45,0 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'inining ulushi 2,8 % punktga o'sdi va 21,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 33,1 % ni tashkil etdi va 2018 yil (33,2 %) bilan taqqoslanganda 0,1 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga soʻliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,1 % ni (2018 yil yanvar-dekabr – 7,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,4 % ni (6,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,6 % ni (19,4 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-dekabr oylarida, jamiga nisbatan foizda)

2018 yil



2019 yil



■ savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ tashish va saqlash, axborot va aloqa

■ xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar